

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi
Raisi**



A.Z. Sa’dullayev

2024-yil

**Erkaklar va ayollar o‘rtasida
O‘zbekiston chempionati (oliy liga)
o‘tkazish to‘g‘risidagi**

NIZOMI

Toshkent - 2024

**Erkaklar va ayollar o‘rtasida
O‘zbekiston chempionati (oliy liga)
o‘tkazish to‘g‘risidagi**

NIZOMI

I. Musobaqaning maqsadi va vazifalari

1. Musobaqalarning maqsadi O‘zbekistonda shaxmat sport turini ommalashtirish va rivojlantirish, sport va madaniy ana‘nalarini saqlash va ko‘paytirish, sportchilarning mahoratini oshirish, o‘z yosh toifasida shaxsiy va jamoaviy O‘zbekiston, Osiyo va Jahon chempionatlarida ishtirok etuvchi sportchilarni aniqlash va saralab olishdir.

2. Turnir quyidagi maqsadlarni ko‘zlagan holda tashkil etilgan:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi “Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash.

II. Musobaqani o‘tkazishga rahbarlik

3. Musobaqani o‘tkazishga umumiy rahbarlik O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) tomonidan hamda O‘zbekiston Shaxmat federatsiyasi (bundan buyon matnda federatsiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Musobaqani adolatli va shaffof holda o‘tkazilishi bevosita hakamlar xay‘ati zimmasiga yuklatiladi.

5. Musobaqada ishtirok etuvchilarning hujjatlarini qabul qilish va rasmiylashtirish federatsiya tomonidan shakllantirilgan mandat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

III. Musobaqani o‘tkazish joyi va muddati

6. Musobaqa Toshkent shahrida 2024-yil 19 apreldan (kelish) 2 maygacha (ketish) bo‘lib o‘tadi.

Kun	Tadbir	Vaqt
19.04.2024	Kelish kuni	
20.04.2024	Ochilish marosimi va 1-2 tur	14.00
21.04.2024	3-4 tur	14.00
22.04.2024	5-6 tur	14.00
23.04.2024	7-8 tur	14.00

24.04.2024	9-10 tur	14.00
25.04.2024	11-12 tur	14.00
26.04.2024	13-14 tur	14.00
27.04.2024	15-16 tur	14.00
28.04.2024	17-18 tur	14.00
28.04.2024	Yopilish marosimi (ayollar)	17.00
29.04.2024	19-20 tur	14.00
30.04.2024	21-22 tur	14.00
01.05.2024	23 tur	14.00
01.05.2024	Yopilish marosimi (erkaklar)	17.00
02.05.2024	Jo'nab ketish	

IV. Musobaqada ishtirok etish shartlari

7. Erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etish huquqiga quyidagilar ega:

2021 yilgi erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida 1-6 o'rinni egallagan sportchilar;

2022 yilgi erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati birinchi ligasida 1-4-o'rinni egallagan sportchilar;

2023 yilgi erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati birinchi ligasida 1-3-o'rinni egallagan sportchilar;

O'zbekiston Shaxmat federatsiyasining trenerlar kengashining qaroriga binoan 1 nafar grossmeyster;

- FIDE reytingi eng yuqori bo'lgan va ohirgi 12 oy ichida standart yo'nalishida kamida beshta reytingli musobaqlarda ishtirok etgan erkaklar o'rtasida 10 nafar ishtirokchi (standart, 2024 yil, 1 mart);

1-6 o'rinni egallagan sportchilar 2025 yilgi erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

8. Ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etishga quyidagilarga ruxsat etiladi:

2022 yilgi ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida 1-6-o'rinni egallagan sportchilar;

2023 yilgi ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati birinchi ligasida 1-4-o'rinni egallagan sportchilar;

O'zbekiston Shaxmat federatsiyasining trenerlar kengashining qaroriga binoan 2 nafar grossmeyster;

- FIDE reytingi eng yuqori bo'lgan va ohirgi 12 oy ichida standart yo'nalishida kamida beshta reytingli musobaqlarda ishtirok etgan ayollar o'rtasida 6 nafar ishtirokchi (standart, 2024 yil, 1 mart);

1-6 o'rinni egallagan sportchilar 2025 yilgi ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

9. Agar ishtirokchilardan birortasi o'z xohishi bilan ishtirok etishdan bosh tortgan taqdirda, ularning o'rniga yuqori reytingga ega (yuqorida ko'rsatilgan shartlar asosida) o'yinchilar bilan almashtiriladi.

Barcha ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi a'zosi bo'lishi shart!

V. Musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash

10. Umumiy mukofot jamg'armasi 75 000 AQSh dollarini tashkil qiladi.

Erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati: 50 000 AQSh dollar

1	15000		10	1000	
2	10000		11	1000	
3	6000		12	1000	
4	4000		13	1000	
5	3000		14	500	
6	2000		15	500	
7	1500		16	500	
8	1000		17	500	
9	1000		18	500	

Ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati: 25 000 AQSh dollar

1	7500		8	500	
2	5000		9	500	
3	3500		10	500	
4	2000		11	500	
5	1500		12	500	
6	1000		13	500	
7	1000		14	500	

11. Sovrinlarni shu kundagi kursi ekvivalentida milliy valyutada to'lanishi mumkin. Agar ishtirokchilarning ochkolari teng bo'lsa, ularning sovrinlari taqsimlanmaydi va yuqorida ko'rsatilgan o'rin bo'yicha beriladi. Pul mukofotlari sovrindorlarga taqdirlash marosimida beriladi yoki ular barcha kerakli

hujjatlarni taqdim etgandan keyin o'tkazib beriladi. Agar ishtirokchilar soni kamaysa, sovrin jamg'armasi kamayishi mumkin.

12. Musobaqaning g'olib va sovrindorlari vazirlik tomonidan tasdiqlangan I, II, va III-darajali tegishli diplomlar hamda medallar bilan federatsiya tomonidan taqdirlanadi.

VI. Musobaqani o'tkazish tizimi

13. Musobaqa aylanma tizimda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchiga o'yin uchun 45 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 10 soniyadan vaqt qo'shib boriladi.

14. Erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida har bir g'alaba uchun - 3 ochko, durang uchun - 1 ochko va mag'lubiyat uchun - 0 ochko beriladi. Ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati Oliy ligasida har bir g'alaba uchun - 1 ochko, durangga - 0.5 ochko va mag'lubiyatga - 0 ochko beriladi.

15. Agar ikki yoki undan ko'proq ishtirokchilarda ochkolar soni bir xil bo'lsa, o'rinlar quyidagi qo'shimcha korsatkichlar ko'ra taqsimlanadi:

1) O'zaro uchrashuv, 2) Berger, 3) Ko'proq g'alabalar soni, 4) Qoralarda ko'proq g'alaba soni.

16. Chempionat vaqtida barcha ishtirokchilar FIDening dress-kodga oid talablariga rioya qilishlari shart. Kalta shim, ochiq oyoq kiyimlar va quyoshdan himoyalovchi ko'zoynaklar, sport shapkasi va ochiq kiyimlar taqiqlanadi.

Shuningdek, ishtirokchilar dress-kodga chempionatning ochilish va yopilish marosimlarida ham amal qilishlari lozim.

VII. Musobaqada ishtirok etish uchun talabnoma (buyurtma)larni taqdim etish shartlari

17. Musobaqada ishtirok etish uchun mandat komissiyasiga quyidagi hujjatlar taqdim etilishi shart:

a) hududiy yoshlar siyosati va sport boshqarmalari va hududiy federatsiyalar tomonidan tasdiqlangan talabnomalar;

b) talabnomada tibbiyot muassasasining vrachi tomonidan har bir sportchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsati (imzo va muhri bilan tasdiqlangan holda);

c) sportchining tug'ilganlik to'g'risida guvohnomasi (asli ko'rsatiladi);

d) 16 yoshga to'lgan har bir sportchining pasport nusxalari yoki ID karta (asli ko'rsatiladi);

Aks holda, ishtirokchilar chempionatda ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.

VIII. Musobaqani moliyalashtirish manbalari

18. Sovrin jamg'armasi va tashkiliy xarajatlar, hakamlar, transfer, turar joy va turnirning taklif etilgan ishtirokchilari va rasmiy shaxslari uchun to'lovlar O'zbekiston shaxmat federatsiyasi va homiylik hisobidan qoplanadi.

Boshqa ishtirokchilar va murabbiylarning kelish xarajatlari va kunlik xarajatlari ularni yuboruvchi tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

IX. Musobaqa natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish

19. Musobaqa natijalari bo'yicha berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish uchun shaxmat federatsiyasi tomonidan apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi musobaqa hakamlari va mandat komissiyasi tarkibida bo'lmagan soha mutaxassislaridan shakllantirilishi talab etiladi.

20. Apellyasiya komissiyasining tarkibi 5 kishidan iborat tarkibda tasdiqlanadi. Apellyasiyani ko'rib chiqish tartibi FIDE talablariga muvofiq, apellyasiya komissiyasi tomonidan belgilanadi.

21. Apellyasiya komissiyasi murojaatni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra musobaqa natijasini bekor qilishi yoki unga tegishli o'zgartirish kiritishi mumkin.

22. Apellyasiya komissiyasining murojaatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilgan qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi
Raising birinchi o'rinbosari



X. Turdialiyev

O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi
Bosh kotibi v.v.b.



I. Semenova